



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

Qishloq hududlarida xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini tashkil etish
uchun nodavlat ta’lim tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash
chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq hududlarida xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini tashkil etish uchun nodavlat ta’lim tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 20-sentabrdagi 513-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son Farmoniga muvofiq 2023-yil 1-yanvardan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi vazifa va funksiyalari tegishincha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi orasida taqsimlangan holda tugatilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmoniga muvofiq yangi tashkil qilingan va qayta tashkil qilingan vazirlik va idoralar faoliyati tugatilgan yoki qayta tashkil qilingan vazirlik va idoralarning tegishli huquq va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi etib belgilanganligi **ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. Quyidagilar:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalaridan nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan subsidiya olish uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda – YIDXP) orqali kelib tushgan so‘rovnomalarni belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqish uchun mas’ul etib belgilangan xodimlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

Nodavlat ta’lim tashkilotlariga bir martalik subsidiya berish uchun Biznes rejani baholash mezonlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari Xorijiy tillarni

o‘rganishni ommalashtirish bo‘limlari boshliqlariga YIDXP orqali kelib tushgan so‘rovnomalarni belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqish va baholash bo‘yicha shaxsiy mas‘uliyat yuklatilsin.

4. Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh. Temirova):

bir hafta muddatda tegishli vazirlik va idoralar tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalaridan mas‘ul etib belgilangan xodimlar uchun so‘rovnomalarni baholash maqsadida YIDXPdan foydalanish huquqining taqdim etilishi choralarini ko‘rsin;

doimiy ravishda qishloq hududlarida xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun nodavlat ta‘lim tashkilotlariga bir martalik subsidiyalar ajratib borilishi jarayonini o‘z vakolati doirasida muvofiqlashtirib borsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari:

yil davomida kelib tushgan so‘rovnomalarni va ularga ajratilgan subsidiyalarning yillik hisobini yuritsin va tahliliy hisobotlarni vazirlikka belgilangan muddatlarda kiritib borsin;

o‘tgan yilning xos davriga qadar ko‘rsatkichlarni inobatga olgan holda mahalliy hokimiyat organlariga 2024-yil va undan keyingi yillar uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti va viloyatlar mahalliy budjetlari parametrlari shakllantirilishida qishloq hududlarida xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini tashkil etish uchun nodavlat ta‘lim tashkilotlariga bir martalik subsidiyalar ajratish maqsadida zarur mablag‘larni nazarda tutish uchun prognoz ma‘lumotlarni kiritib borsin.

6. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i (D.Sobirova) qishloq hududlarida xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan bir martalik subsidiyalar ajratilayotganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni vazirlikning ijtimoiy tarmoqlari va ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilib borsin.

7. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni **bir kun muddatda** vazirlikning markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari hamda hududiy boshqarmalarga yetkazilishini ta‘minlasin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari U.Begimqulov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,

2023-yil “14” — mart,